



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Sa'dullayeva Go'zal Baxtiyor qizi.,

²Axrorova Mahina Avazovna.

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Pedagogika ta'limi fakulteti talabasi

²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Pedagogika ta'limi fakulteti o'qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINI O‘QUVCHILARGA TUSHUNTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN QIZIQARLI SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarga “Hayrat ul-abror” dostonini oson va tushunarli tarzda tushuntirish va o‘quvchilarda doston haqida tushunchalarni hosil qilish, har xil qiziqarli savol va topshiriqlar orqali dostondagi chuqur g`oyani yetkiza olish va dostonda keltirilgan maqolatlar ma’nosini tushuntira olishga qaratilgan savol-topshiriqlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “Hayrat ul-abror” dostoni, birinchi maqolat, Imon tushunchasi, qiziqarli savol va topshiriqlar, o‘n birinchi maqolat, ilm tushunchasi.

ИНТЕРЕСНЫЕ ВОПРОСЫ И ЗАДАЧИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ПРИ ОБЪЯСНЕНИИ ЭПОСА АЛИШЕРА НАВАИ «ХАЙРАТ УЛ-АБРАР» УЧЕНИКАМ

Аннотация: В статье объясняется как можно в доступной форме объяснить эпос «Хайрат уль-Аброр» и создать у учащихся представления об эпосе, понять глубокую идею эпоса посредством различных интересных вопросов и заданий, а также Для объяснения смысла статей в былине представлены целенаправленные вопросы.

Ключевые слова: Сага «Хайрат уль-Аброр», первая статья, понятие веры, интересные вопросы и задания, одиннадцатая статья, понятие науки.

INTERESTING QUESTIONS AND TASKS USED IN EXPLAINING THE STORY OF ALISHER NAVAI "HAYRAT UL-ABRAR" TO STUDENTS

Annotation: "Hayrat ul-Abror" epic is easy for students to read in he article and explaining in a comprehensible way and forming students understanding of the epic,through various interesting questions and tasks, the depth of the epic questions are presented.

Key words: "Hayrat ul-Abror", first article, concept of faith,interesting questions and assignments, eleventh chapter, concept of science.

KIRISH. G‘azal mulkining sultonni, o‘zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy qalamiga mansub shoh asari “Xamsa” besh dostondan iborat bo‘lib, bular “Hayrat-ul Abror”(Yaxshilar hayrati), “Farhod va shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi sayyor” (Yetti sayyora), Saddi Iskandariy”(Iskandar devoni) dostonlaridir. “Hayrat ul-Abror” pand-nasihat ruhidagi ta’limiy-axloqiy dostondir. Doston 20 maqolatdan tarkib topgan. 1 - maqolat iymon haqida, 2 - maqolat islom haqida, 3 - maqolat sultonlar haqida (unda «Shoh G‘oziy» hikoyati keltirilgan), 4 - maqolat riyokor shayxlar xususida, 5 - maqolat xayr ehson (karam) haqida (unda «Hotami Toyi» hikoyati keltirilgan). Yoyar anga supraki, ul och etnas, Berur anga to‘rtki, yalong‘ach emas¹ - misralari ham mana shu karam haqidagi 5 - maqolatdan olinganj 6 - maqolat adablilik (odob va kamtarlik) haqida (unda «No‘siravon hayo bog‘ida» hikoyati keltirilgan), 7 - maqolat qanoat haqida (unda «Qanoat qiluvchi juvonmard bilan tamagir» hikoyati bor), 8 - maqolat vafo haqida (unda «ikki vafoli yor» hikoyati keltirilgan bo‘lib voqealar Hindistonda bo‘ladi), 9 - maqolat ishq o‘ti haqida, 10 - maqolat rostgo‘ylik va to‘g‘rilik haqida (unda «Sher bilan Durroj» masali keltirilgan bo‘lib, yolg‘onchilik illati qoralangan. Unda Navoiy «So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil, Rost navo nag‘maga tahsin degil» deydi), 11 - maqolat ilm osmonining yulduzlardek baland martabaliligi haqida, 12 - maqolat qalam va qalam ahllari haqida, 13 - maqolat bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida, 14 - maqolat osmon tuzilishidan shikoyat, 15 - maqolat jahon mayi haqida, 16 - maqolat xunasasifat oliftalar haqida, 17 - maqolat bahor yigitligining sofligi haqida, 18 - maqolat falak g‘amxonasi haqida, 19 -maqolat Xurosonning misli yo‘q viloyati bayoni haqida (Xuroson va Hirot vasf etilgan), 20 - maqolat maqsadni to‘g‘ri qilish haqida. Har bir maqolatda inson hayoti uchun kerak bo‘lgan hikoyalar keltirilgandir. Bu doston o‘quvchilar uchun biroz qiyinlik qilgani sababli uni tushuntirishda turli metodlar va qiziqarli savol-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muofiqdir. Doston o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun juda ham ko‘p metod va qiziqarli o‘yinlardan foydalansa bo‘ladi.

¹ Алишер Навоий. МАТ, 20 жилдлик. 7-жилд. –Т.: “Фан”, 2017. 118-6

TAHLIL VA NATIJALAR. Misol tariqasida ko‘radiga bo‘lsak sinfdagi o‘quvchilarga “Xamsa”ning birinchi dostoni, ya’ni “Hayrat ul-Abror” o‘qib kelishga beriladi, o‘quvchilar dostonni o‘qib tugatib kelishgandan keyin o‘qigan dostonlari savol-javob metodi orqali mustahkamlanib olinadi. Bunda biz “Sehrli ruchka” metodidan foydalaniib ko‘ramiz. O‘quvchi qo‘liga ruchka beriladi bu vaqtida o‘qituvchi musiqa qo‘yadi o‘quvchilar tezlik bilan ruchkani bir-birlariga uzatishlari kerak bo‘ladi, musiqa to‘xtaganda ruchka qaysi o‘quvchi qo‘lida qolsa, o‘scha o‘quvchi o‘rnidan turadi va u o‘quvchiga doston yuzasidan savollar beriladi. Shu tarzda dostonni mustahkamlab olganimizdan keyin, dostonda keltirilgan so‘zlarni ma’nolarini o‘quvchilarga tushuntirish lozim. O‘quvchilardan tushunmagan jumlalari va so‘zlar so‘raladi. Dars so‘ngida o‘quvchilardan dostondan nima olganliklari va dostonning tub mohiyatini qanday tushunganligi haqida o‘z fikrlari so‘raladi. Dostonning birinchi maqolati Imon haqida bo‘lib har bir o‘quvchi balki insonlar bilishi kerak bo‘lgan tuyg‘udir. Dostonda shunday so‘zlar keltirilgan “Kimki bu jahonga inson bo‘lib kelgan ekan, uning asosiy sharti imondir”². Bu jumla tagida juda katta ma’no yashiringan bo‘lib o‘quvchilar uni anglab, tushuna olishlari lozim. Bugungi kunda insonlar o‘zligini va asosiy maqsadini unutib, dunyoviy narsalarga ruju qo‘yib borishmoqdalar. Doston insonlarga o‘zligini, dunyoga kelishidan maqsad nima va ilm olishlik, diniy tomonlama qanday bo‘lishi kerak, umuman inson va insoniy fazilatlar haqida keng tushunchalar keltirilgandir. O‘quvchilar dostonni yuzaki o‘qib ketmasdan har bir jumлага alohida e’tibor berishlari kerak. Dostonda iymon olti qismdan iboratligi keltirilgan. Bular: Maqsud-haqning mavjudligini bilish, farishtalar, osmon kitoblari, payg‘ambarimiz ma’shari, qiyomat, qadar kabi qismlardan iborat. Insonlar shu narsalarni bilib uning borligiga ishonishsalar imonga erishish yo‘lidan ketayotgaliklarini anglab yetishlari mumkin. O‘quvchilarga bu so‘zlarning ma’nolari tushunarsiz bo‘lishi tabiiy hol albatta, o‘qituvchi bu so‘zlarning ma’no-mazmunini tushuntirib berishi kerak, shunda doston yanada tushunarli bo‘ladi. 11-maqolat ilm va olimlar haqidadir. Dunyodagi mashaqqatli ishlardan biri bu ilm olishdir. Ilm olishni xuddi igna bilan quduq qazish bilan teng keltirganlar. Bejizga emas chunki ilm olish insonlardan anchagina mashaqqat talab etadi.

Ilmni kim vositayi joh etar,
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.
Olim agar joh uchun o‘lsa zalil
Ilmi uning jahlig‘a bo‘lg‘ay dalil.

Bu jumlada inson ilmni hor qilishi ya’ni egallamasligi natijasida o‘zini va xalqini gumroh yani ko‘zi ojiz qilishi keltirilgan. Insonga ilm har doim guvohlik berishi haqida so‘z yuritilgan. Bu jumla o‘quvchilarni yaxshilikka har doim ilm olishga undaydi.

² Алишер Навоий. MAT, 20 жилдлик. –Т.: “Фан”, 2017. 118-б

Ilmni chuqur egallash oson ish emasligi, bu ish yillar va juda ko‘p tajribalar asosida bo‘lishini o‘quvchilarga tushuntirish lozim.

“Olmos” metodi. Ushbu metodda raqamlar qo‘yilgan. O‘quvchi raqamlarni tanlaydi o‘quvchi tanlagan raqam ortidagi savollariga javob beradi.

	1	
2		3
4	5	6
7		8
	9	

1. Shayx Boyazid hikoyatini aytib bering
2. Ibrohim Adham hikoyatini aytib bering.
3. “Zoli falakdin necha ko‘rsang alam, Shah chu qilur adl, Navoiy, ne g‘am”- Ushbu bayt qaysi hikoyatdan olingan?
4. Riyoyi xirqapo‘shlar haqida dostonda nimalar berilgan?
5. Sher bilan durroj hikoyatida sher nega durroj bilan do‘st tutinadi?
6. Yoqut haqida hikoyani so‘zlab bering.
7. Iskandar haqida hikoya nima haqida?
8. Hatami Toy haqida hikoyatni so‘zlab berng.
9. “Tilla kampir” qaysi hikoyatda keltirgan?

XULOSA. Dostonda ilm to‘g‘risida keltirilishi ham beziz emas, ilmgaga bo‘lgan talab Navoiy yashab, ijod qilgan davrlarda yuksak darajada bo‘lgan. Alisher Navoiy dostoniga ilm mavzusini kiritib yosh avlodlarni ilmli, har tomonlama ham aqliy, ham diniy tomondan rivojlanishi xohlaganlar. O‘quvchilar buning tub zamirida nima yotganligini anglab yetishlari lozim. Doston har bir o‘quvchiga diniy va dunyoviy bilimlarni bera oladi desak, adashmagan bo‘lamiz. “Xams”aning hamma dostonlarini o‘qib chiqish talab etiladi. Negaki, har bir doston ichida o‘ziga xos chuqur bilim, dunyoviy va ilohiy tushunchalar keltirilgan. Allohga chin muhabbat qanday bo‘lishi kerakligi va boshqa tushunchalar dostonda juda keng va chuqur qilib tushuntirib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 3-jild. –T.: “Fan”, 2017. 550-b.
2. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 7-jild. –T.: “Fan”, 2017. 118-b
3. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 5-jild. –T.: “Fan”, 2017. 493-b.
4. Alisher Navoiy. MAT, 20 jildlik. 5-jild. –T.: “Fan”, 2018. 599-b.
5. Alisher Navoiy “Xamsa” dostoni 18-61 b. “Yoshlar matbuoti”, 2023-y
6. Alisher Navoiy Xamsa/Alisher Navoiy; qisqartirib nashrga tayyorlovchi A. Hojiahmedov; mas’ul muharrir V. Rahmonov.-T.: Yangi asr avlodi, 2010.-348 b.
7. Baxranovna, M. R. (2022). International System Assessment of Reading Literacy of Primary School Pupils Girls. *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 35-38.
8. Bakhranovna, R. M. (2020). THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN SHAPING STUDENTS' THINKING SKILLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION*, 1, 37-40.